

FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ISHQ TALQINI

Azimova Muxtasar Ulug'bek qizi

FarDU o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

22.90-guruh talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Farhod butun hayoti davomida sinov- imtihon, mashaqqat va azob-uqubatlar evaziga majoziy ishq chechagi taratgan muattar bo'ydan bahra olishi, ammo bu ishq chechagi haqiqat quyoshi qarshisida so'lishga va iforini boy berishga mahkum. Farhod va Shirin yetishgan visol firoq va hajrga o'rin bo'shatib berishi, Farhod va Shirinni majoziy ishq zavqi va lazzati ma'nan va ruhan sarxush aylash barobarida, har ikkisini ishq o'tida tobladi, tarbiyaladi va haqiqiy ishq olami sari yo'l olishga hozirlashi, majoziy ishqning haqiqiy ishqqa o'rin bo'shatib berishi alohida bosqich va jarayon ekanligi haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: majoziy ishq, ilohiy ishq, mazhar, nafs, paykar, komil inson, irfoniy, hajr.

Kirish.

Ma'lumki, "Farhod va Shirin" mavzusiga ko'ra, ishqiy-romantik dostonidir. Aslida ulug' shoirning hamma she'rlarida deyarli ishqiy bir uzilish, intizorlik tuyg'ulari tarannum etiladi. Shoirning asosiy ilhom manbayi "ishq"dir. Maqolada Farhodning Shiringa bo'lgan ishq inkishofida Navoiy muhim ijtimoiy, hayotiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarur masalalarni hal qilishga intilgani, shu bilan birga dostonidagi bosh g'oya ma'naviy ozodlikka, axloqiy kamolotga erishish, qora kuchlarga qarshi kurash, maqsad uchun toj-taxtdan, hayot lazzatidan vahatto o'z umridan kecha oladigan kuchli iroda sohibi bo'lish kerakligi aytilgan. Tadqiqotning diqqatga sazovor jihati shundaki, muallif asar qahramonlariga o'ziga xos ta'riflar beradi. Ularga oddiy insonlarga xos bo'lgan o'lchovlar orqali yondashish hech qanday natija bermasligini, shaxsiyatlarida buyuk g'oyalarni ifoda qiluvchi qahramonlarning ishlari, intilishlari oddiy insoniy o'lchovlar doirasiga sig'masligini alohida ta'kidlaydi.

Muhokama va natijalar.

"Farhod va Shirin" dostonida ifodalangan ishq-muhabbatni navoiyshunoslikda uzoq vaqt odatiy, ya'ni avom ishq sifatida talqin va tavsif qilib kelindi. Holbuki, Farhod va Shirin sevgi-muhabbati iztirobini avom ishq talabi asosida tahlil etilsa, Farhodning to'rt manzilda uchragan to'siq-g'ovlarni yengib o'tishining asar syujetiga olib kirilgani tushunarsiz bo'ladi. Shu bois "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" tipidagi dostonlarning ichki qatlami va mohiyatida aks ettirilgan majoziy ishqni nafs havodan poklanmagan avom sevgisi zamiridagi ishq turidan ajratib olish qiyin kechadi. Zero, Farididdin Attor "Mantiq ut-tayr" dostonida surat va ma'ni ahli haqida so'z yuritib, har ikkisi ham so'zim shaydosi, ammo ma'ni ahli sirlarimning haqiqiy egasidir, xoslar ham, avom ham undan ma'naviy lazzat va huzur oladi, deya ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "Farhod va Shirin" dostonidan avom ham, xoslar ham baravar o'zlariga kerakli ma'naviy oziq oladilar. Avom asarning zohiriy tomoniga ahamiyat bergan holda zavq va huzur

tuysa, ma'ni ahli uning ichki qatlamiga joylangan ma'no durlarini teradi "Farhod va Shirin" dostoni majoz va haqiqatni, ramziylik va hayotiylikni san'atkorlik bilan qo'shib olib boradigan doston ekanligi ilk boblardan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. A. Rustamovning "Navoiyning badiiy mahorati" kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog'iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do'sti Shopurga, ajalni otasini o'ldirgan Parvezning o'g'li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisogao'xshatgan holda "shirin", "tilism" so'zlarini, Besutun, Xusrav va uningashulachisi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonningmundarijasiga uyg'unlashtirgan. Shu bilan birga, bu o'xshatishlar zamiridashoir doston mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati qaysi ko'lamdakechishi, ular dostonda qanday rol o'nashi bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Farhod yoshi ulg'aygani sari hazin va xastadil bo'lib bolib boradi. XoqonFarhodning ko'nglini ochish, hazin kayfiyatini ko'tarish uchun yilning tort fasligamoslab to'rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yonish, Boniydan me'morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Lekin u egallaganbilimlar, o'rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ilohiy sir-u asrorniochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta'limini olishi kerak edi.

Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini korgan xoqon unga taxtni taklif qiladiva shu bilan go'yoki og'lining dardiga davo topmoqchi bo'ladi. Aslida esaFarhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy bo'lmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu o'rinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdanmahrum foniy dunyo kishilari orasidagi farqni ko'rsatib beradi.

Dostonda majoziy ishq tong yorug'iga,

haqiqiy ishq quyoshga o'xshatiladi:

Bu o'zlukdin qutulmoq chorasoz,

Nima yo'q, o'ylakim ishq majoziy...

Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,

Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.

Alisher Navoiyning bu o'rinda majoziy ishq va haqiqiy ishq haqidagi fikrlariNavoiy ijodida ishqni tog'ri talqin qilishga ko'mak beradi. Shoir majoziy ishqnitong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga oxshatish bilan "majoz - haqiqat yo'lidagiko'prik" ekanligigiga, Yaratganga muhabbat U yaratgan xilqatlarga muhabbatorqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafga nazartashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlab majoziyishq sifatida namoyon bo'ladi. Biroq majoziy ishq uchun "mazhar" kerak. Mazhar - Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar - Shirin edi. Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo'lda tariqat maqomlarini bosibo'tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo'lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglayboshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, kozguda endi nafaqat Shirinni, balkio'zini va ozi kelgusida boshdan kechirishi kerak bolgan voqealarni ko'raboshlaydi.

N. Komilovning "Tasavvuf" nomli kitobida yozilishicha, SuhayloFarhodning tariqat yolidagi birinchi piridir. U Farhod yengib o'tishi kerak bo'lganto'siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho - nafs timsoli, dev saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni

yengish uchunsaman - darning yog'ini beradi. Samandar olov ichida yashaydigan jonivor. Uishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog'ini surganda, ajdarhoning o'ti unqakor qilmaydi, ya'ni ishq otashi naf's o'tini so'ndiradi. Shuningdek, Farhodgakeydingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma'nosibor. Sher g'azab timsoli, ilohiy ishq yo'luga kirayotgan solik- da esa g'azabbo'lmasligi kerak. Temir paykar ro'yo, yolg'on dunyo ramzi. Solik dunyomo'jizalariga chalg'imasligi, ularga kongil qo'ymasligi kerak. Farhod temirapaykarni ham yengib, nihoyat Suqrot dargohiga kirib boradi. Aslida Suqrottimsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo'lmay, bosh maqsadni ochibberish yo'lidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komiltimsoli bo'lib, usiz Farhodning o'z maqsadiga erishishi mumkin emas edi.Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlninghaykali deb ta'riflaydi. U kamolot chøqqisini egalln komil inson, o'zi bir joydao'tirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko'zagusiham uning ko'ngil kozgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakkasuhbatlashib, uni o'z farzandiday e'zozlaydi. Chunki bu yigit siyimosida u o'zsuluk (yo'l)ining davomini ko'rgan edi. U Farhodga shunday deydi:

Muni bilkim, jahon foniydur asru.

Haqiqat ahli zindoniydur asru. Agar topsa Sikandar mulki zoting,

Gar o'lsa Nuh umricha hayoting.

Inson o'zlikdan qutulmay, Ilohga yetolmas ekan, demak, unitezlashtiruvchi chora vosita kerak. Dostonda majoziy ishq tong yorug'iga, haqiqiy ishq quyoshga o'xshatiladi:

Bu ozlukdin qutulmoq chorasoz,

Nima yoq, o'ylakim ishq majoziy...

Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar.

Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.

Alisher Navoiyning bu o'rinda majoziy ishq va haqiqiy ishq haqidagifikrlari Navoiy ijodida ishqni tog'ri talqin qilishga ko'mak beradi. Shoir majoziyishqni tong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga oxshatish bilan "majoz haqiqatyolidagi koprik" ekanligiga, Yaratganga muhabbat U yaratgan xilqatlarga muhabbat orqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafganazar tashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlaby ishq sifatida namoyon bola- di. Biroq majoziy ishq uchun "mazhar"kerak. Mazhar Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar - Shirinedi.

Dostondagi har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo'lib, Navoiyhar bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy "vazifa" yuklaganliginiko'rish mumkin. Dostonda ilohiy ishqdan bebahra foni dunyo kishilaridan biri Xusravdir. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xilishq - avom ishq va ilohiy ishq ortasidagi tafovutni ko'rsatib beradi. Jami 25baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda muayyan badiiysan'atning yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Xususan:

Bag'ishlash: ishq o'tidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona. baytida "o't" va "kuymoq" so'zlari asosida tanosub san'ati yasalganliginiko'rsak, keyingi baytda "a" unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan assonans badiiy vositasining qo'llanilganligini ko'ramiz.

Bag'ishlash: kuymagingni ayla ma'lum,

Dedi: andin erur joh ahli mahrum...

Xulosa: Hayot odamzotga har qancha lazzat va sarxushlik ato etmasin, uning nihoyasi achchiq ekani haqiqat. Teranroq mulohaza yuritsak, majoziy ishq odamzotga tiriklik va o'lim mayini tottiradi. Navoiy bu ikkisining hosilasi o'zlikdan voz kechish va uning g'amidan qutulish tashvishini chekish ekanini bildirgan holda, o'z qahramoni Farhod erishgan darajani shunday tasvirlaydi: Farhod butun hayoti davomida sinov-imtihon, mashaqqat va azob-uqubatlar evaziga majoziy ishq chechagi taratgan muattar bo'ydan bahra oldi. Ammo bu ishq chechagi haqiqat quyoshi qarshisida so'lishga va iforini boy berishga mahkum. Farhod va Shirin yetishgan visol firol va hajrga o'rin bo'shatib berishi darkor. Farhod va Shirinni majoziy ishq zavqi va lazzati ma'nau va ruhan sarxush aylash barobarida, har ikkisini ishq o'tida tobladi, tarbiyaladi va haqiqiy ishq olami sari yo'l olishga hozirladi. Majoziy ishqning haqiqiy ishqqa o'rin bo'shatib berishi alohida bosqich va jarayon ekanini dostonning keyingi boblarida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qayumov A. Farhod va Shirin sirlari. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1979 yil.
2. Hayitmetov A. Navoiy Dahosi. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1970.
3. Курбанов А. Хамса сарлавҳалари бадийяти Тошкент: Meriyusnashriyot uyi, 2016 yil
4. Imomova O, Mamarasulova B. Badiiy asarlarda ishq-muhabbat talqini.
5. Ҳаққул И, Навоийга қайтиш Тошкент: Фан нашриёти, 2007
6. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
7. Komilov N. Tasavvuf. T.: Movarounnahr-O'zbekiston NMIU, 2009
8. Qayumov A.. Ishq vodiysi chechlari. -T.: Adabiyot va san'at, 1985
9. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - T.: Adabiyot va san'at, 1979
10. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. -T.: Istiqlol, 1999
11. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. B.: "Buxoro" nashriyoti, 1994